

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOBONAZAROVA SARVINOZ HABIBULLAYEVNA

**TOLUIDINNI XLORATSETILLASH REAKSIYALARI VA OLINGAN
BIRIKMALARNING XOSSALARI**

02.00.03 – Organik kimyo

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Kimyo fanalari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
chemical sciences**

Bobonazarova Sarvinoz Habibullayevna

Toluidinni xloratsetillash reaksiyalari va olingan birikmalarning
xossalari..... 3

Бобоназарова Сарвиноз Ҳабибуллаевна

Реакции хлорацетилирования толуидина и свойства полученных
продуктов.....25

Bobonazarova Sarvinoz Habibullayevna

Chloroacetylation reactions of toluidine and properties of the obtained
compounds49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOBONAZAROVA SARVINOZ HABIBULLAYEVNA

**TOLUIDINNI XLORATSETILLASH REAKSIYALARI VA OLINGAN
BIRIKMALARNING XOSSALARI**

02.00.03 – Organik kimyo

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Olit ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining B2024.1.PhD/K717 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ik-kimyo.nuu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portolida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Abdushukurov Anvar Kabirovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Ziyodullayev Odiljon Egamberdiyevich
kimyo fanlari doktori, professor

Abdurazakov Asqar Sheraliyevich
Kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 20__-yil “__” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (998 71) 227-12-24, faks: (998 71) 246-53-21; 246-02-24. e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99871) 246-53-21; 246-02-24; e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 20__-yil “__” _____ kuni tarqatildi
(20__-yil “__” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.A.Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor

N.X.Qutlimurotova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d., professor

T.S.Xoliqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
k.f.d., professor

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda alifatik va aromatik aminobirikmalarning alkil-arilamidlari hamda ularning hosilalari asosida sintez qilinadigan birikmalar tibbiyotda va farmatsevtikada turli diabet, saraton, alsgeymer kasalligiga qarshi immunostimulyator faollikka ega bo'lgan, turli patogen mikroorganizmlarga qarshi biologik faol birikmalar, qishloq xo'jaligida gerbitsid va fungitsidlar sifatida keng miqyosda qo'llanilmoqda. Bu birikmalarni sintez qilishda, ayniqsa, aromatik aminlarni xloratsetillash natijasida olingan N-atsetamid hosilalari prostata saratoniga qarshi ishlatilayotgan bikalutamid va flutamid preparatlari hamda ko'krak bezi saratoniga qarshi alpelisib kabi preparatlar ko'rinishida ishlatiladi. Ayniqsa, toluidinlarni xloratsetillash va 2-xlor-N-tolilatsetamidlar olish reaksiyalarini yashil kimyo tamoyillariga asoslangan holda olib borish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahonda aminobirikmalarni, jumladan, aromatik aminlarni, tarkibida, asosan, azot tutgan geterohalqali birikmalarni xloratsetillash sp^2 gibridlangan uglerod atomida nukleofil almashinish reaksiya mexanizmida N-atsetamid bog'li birikmalar sintezida tadqiqotlar olib borilgan. 2-Xlor-N-atsetamidlar asosida turli faol nukleofil reagentlar bilan sp^3 gibridlangan uglerod atomida nukleofil almashinish reaksiyalari orqali ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Respublikamizda so'nggi yillarda ilmiy tadqiqot mavjud bilimlarni oshirishga qaratilgan va tadqiqotni sanoatlashtirish, sanoatni rivojlantirishning uzviy bog'liqligini ta'minlash, mahalliy xom ashyo asosida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish borasida tabiiy va sintetik organik moddalar olish bo'yicha muhim natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish"ga yo'naltirilgan vazifalari belgilab berilgan¹. Shu yo'nalishda, bugungi kunda aromatik aminlarni va geterohalqali birikmalarni xloratsetillash reaksiyalari asosida N-atsetamid birikmalar sintezining optimal sharoitlarini topish hamda olingan birikmalarning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan tahlil qilish, reaksiyaning yuqori unumlar bilan borishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni va reaksiya qonuniyatlarini aniqlash, olingan birikmalarning fizik-kimyoviy va biologik xossalarni o'rganish hamda tarkibida turli funksional guruh tutgan biologik faol moddalarni yaratish uchun zarur bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 12-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarida aromatik uglevodorodlarni, geterohalqali birikmalarni xloratsetillash reaksiyalari organik kimyo yo‘nalishida keng o‘rganilgan, xususan, xorijda maqsadli sintezlarni amalga oshirish bo‘yicha jahonning yetakchi olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Hindistonlik A.Mohammed, S.Siham, T.Bouchra va M.Mohamedlar biologik faol – saratonga, virusga, antimalarial-antiparazitlik bezgakka, mikroblarga va yallig‘lanishga qarshi moddalar sintez qilish maqsadida aromatik aminlarni xloratsetillash reaksiyalarini olib borgan.

Respublikamizda aromatik va geterohalqali birikmalarni xloratsetillash reaksiyalari yo‘nalishida bir qancha yetakchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar, masalan, I.P.Sukervanik, N.G.Sidorova, Q.N.Ahmedov, T.T.Do‘stmuhammedov, A.K.Abdushukurov va boshqalar aromatik birikmalar, aromatik aminlar, geterohalqali birikmalarni xloratsetillash reaksiyalarini takomillashtirishga hissalarini qo‘shishgan hamda yangi gerbitsid, fungitsid faollikka ega bo‘lgan moddalar olingan.

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, aromatik aminobirikmalarni xloratsetillash reaksiyalari va hosil bo‘lgan xloratsetil birikmalarni tozalash usullari haqidagi ma’lumotlar keng miqyosda keltirilgan, ammo toluidin izomerlarini xloratsetillash reaksiyalari sistemstik o‘rganilmagan. Bundan tashqari, olingan 2-xlor-N-tolilatsetamidlarni alkaloidlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nukleofil almashinish reaksiyalari o‘rganilmagan. Shu sababli, mazkur dissertatsiya ishi toluidin izomerlarini xloratsetillash reaksiyalari orqali olingan 2-xlor-N-tolilatsetamidlarning alkaloidlar bilan reaksiyalari asosida tibbiyotda, qishloq xo‘jaligida, sanoatda foydalanish mumkin bo‘lgan, tarkibida N-atsetamid bog‘i saqlagan, biologik faol birikmalar maqsadli sinteziga qaratilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining № Ф3-2017102476 “Izomer aminofenollarni xloratsetillash va xloratsetil mahsulotlar asosida biologik faol moddalar sintez qilish” (2018-2019-y.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: toluidinni xloratsetillash reaksiyalari maqbul usullarini takomillashtirish va olingan birikmalarning ba’zi alkaloidlar bilan reaksiyalarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning vazifalari:

– toluidin izomerlarini xloratsetillash reaksiyalarini ultratovush ta'sirida xona haroratda olib borish usullarini tadqiq qilish hamda xloratsetillash reaksiyalaridagi nisbiy faollik qatorini aniqlash;

– 2-xlor-N-tolilatsetamidlar hosil bo'lish unumiga asos ta'sirini, erituvchi tabiati hamda reaksiya davomiyligini o'rganish;

– 2-xlor-N-tolilatsetamidlarni ba'zi alkaloidlar: 1-(3,4-dimetoksifenil)-6,7-dimetoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin (F7), sitizin, salsolin, psevdofedrin, 8-oksixinolin, anabazin bilan nukleofil almashinish reaksiyalari uchun maqbul sharoitlarini aniqlash;

– reaksiya natijasida olingan organik birikmalarning tuzilishini fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tasdiqlash hamda qo'llanilish sohasini asoslash;

– sintez qilingan yangi N-tolilatsetamidlarni alkaloidli hosilalarining biologik faolligini tadqiq qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida *orto-*, *meta-*, *para-*toluidin izomerlari, anilin, xloratsetilxlorid, F7, sitizin, salsolin, psevdofedrin, 8-oksixinolin, anabazin gidroxloridlar va ular asosida sintez qilingan birikmalar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. N-xloratsetillash, xloratsetilxloridning sp^2 -gibridlangan uglerod atomida nukleofil almashinish reaksiyalari, N-xloratsetil mahsulotlarni N-, O-nukleofillar bilan nukleofil almashinish reaksiyalari va reaksiya mahsulotlarining fizik-kimyoviy xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar jarayonida yuqqa qatlamli xromatografiya (YuQX), IQ, 1H va ^{13}C YaMR-spektroskopiya, xromato-mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), biologik tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

– toluidinlarni xloratsetillash reaksiyalari ilk bor ultratovush ta'sirida $-5-2^{\circ}C$ haroratda, atsetonitril erituvchisida olib borilgan va toluidin izomerlarini xloratsetillash reaksiyalarida unum *o*-toluidin < *m*-toluidin < *p*-toluidin qatorida, azot atomining elektron zichligi va asosiligi ortishiga mos ravishda, ortib borishi isbotlangan;

– ilk bor 2-xlor-N-tolilatsetamid izomerlarini ba'zi tanlangan F7, sitizin, salsolin, psevdofedrin, 8-oksixinolin, anabazin alkaloidlar bilan nukleofil almashinish reaksiyalari maqbul sharoitda yuqori unum bilan mahsulot ajratib olingan, ushbu reaksiyalar uchun erituvchilarning etilatsetat < 1,4-dioksan < atseton < dimetilformamid – (DMFA) selektivlik qatori aniqlangan;

– 2-xlor-N-tolilatsetamidlarni alkaloidlar bilan reaksiyalari qizdirish bilan olib borilganga qaraganda ultratovush ta'sirida yuqori unum bilan mahsulot hosil bo'lishiga erishilgan, bu harorat ta'sirida molekulalarning harakati tezlashishi hisobiga, ultratovush sharoitida esa atomlar orasidagi bog'larning tebranishlar soni ortishi bog'larning uzilishini osonlashishi va yangi bog'ning hosil bo'lishi tezlashishi bilan izohlandi;

– 2-xlor-N-tolilatsetamid izomerlarini ba'zi tanlangan F7, sitizin, salsolin, psevdofedrin, 8-oksixinolin, anabazin alkaloidlari bilan nukleofil almashinish

reaksiyalariga ilk bor kam miqdordagi DMFA ta'siri o'rganilgan va DMFA ni katalitik ta'siri uchun mexanizm taklif qilindi;

– 2-xlor-N-tolilatsetamid izomerlarini alkaloidlar bilan nukleofil almashinish reaksiya unumlari asosida tanlab olingan alkaloidlarning F7>psevdoefedrin> sitizin>anabazin>salsolin>8-oksixinolin faollik qatori aniqlangan va bu molekuladagi azot atomining nukleofilligi ortishi bilan izohlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sintez qilingan birikmalardan 2-xlor-N-*p*-tolilatsetamidning 1-(3,4-dimetoksifenil)-6,7-dimetoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin alkaloidi bilan hosilasi antioksidantlik faolligi aniqlangan hamda ushbu moddaning o'tkir zaharlash xususiyati natijalari V sinf – deyarli zaharli bo'lmagan birikmalar (LD₅₀) >2500 mg/kg sinfiga mansub ekanligi aniqlangan;

2-xlor-N-*p*-tolil-atsetamid, 2-xlor-N-*m*-tolil-atsetamidning F7 alkaloidi bilan hosilasi va 2-xlor-N-*m*-tolil-atsetamidning psevdoefedrin alkaloidi bilan hosilasining fazoviy tuzilishi hamda barcha kristallografik kattaliklari isbotlangan hamda Xalqaro Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan;

2-(xinolin-8-oksi)-N-*m*-tolilatsetamid va 2-(sitizin)-N-*m*-tolilatsetamid moddalarining metall ionlari bilan xelatlashish yoki kompleks hosil qilish qobiliyati yuqori ekanligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan YuQX, IQ, ¹H va ¹³C YaMR-spektroskopiya, xromato-mass-spektrometriya, RTT va dalolatnomalar mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati, toluidin izomerlarini xloratsetillash reaksiyalari ultratovushli suv hammomida yuqori unum bilan sintez qilingan va 2-xlor-N-tolilatsetamidlarni ba'zi alkaloidlar bilan nukleofil almashinish reaksiyalari asosida maqsadli sintezlar amalga oshirilgan, maqbul sharoitlarda 94 %gacha yuqori unumlar bilan mahsulot ajratib olingan. Katalitik miqdordagi DMFA ishtirokida yuqori unum bilan yangi moddalar sintez qilingan va reaksiya mexanizmi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati toluidin izomerlarining xloratsetillash reaksiyalari natijasida 3 ta, 2-xlor-N-tolilatsetamid izomerlarining F7, sitizin, salsolin, psevdoefedrin, 8-oksixinolin, anabazin alkaloidlari bilan 18 ta yangi alkaloidli atsetamidlar sintez qilingan hamda birikmalar orasida yuqori antioksidant xususiyatga ega moddalar borligi va ularning keyingi amaliy tadqiqotlar uchun izlanish obyekti bo'la olishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi 2-Xlor-N-tolilatsetamidlarni ba'zi alkaloidlar bilan reaksiyalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

2-xlor-N-*p*-tolil-atsetamid, 2-xlor-N-*m*-tolil-atsetamidning F7 alkaloidi bilan hosilasi va 2-xlor-N-*m*-tolil-atsetamidning psevdoefedrin alkaloidi bilan hosilasining RTT natijalari Kembrij kristallografik markazi ma'lumotlar bazasiga kiritilgan (Cambridge Crystallographic Data Centre ning 2023-yil 12-apreldagi 2255655-sonli, 2023-yil 12-apreldagi 2255648-sonli, 2025-yil 26-iyundagi 2467626-sonli ma'lumotnomalari). Natijada 2-xlor-N-tolil-atsetamid izomerlarini

alkaloidlar bilan hosilalari tarkibiga kiruvchi yangi moddalarning tuzilishini aniqlash imkonini bergan;

2-(Xinolin-8-oksi)-N-*m*-tolilatsetamid va 2-(sitizin)-N-*m*-tolilatsetamid moddalarining metall ionlari bilan xelatlashish, ya'ni molekuladagi ikki yoki undan ortiq koordinatsion atomlar bilan koordinatsion bog'lar orqali metall ionlarini o'z ichiga olgan geterotsiklik tuzilmani (xelat halqasini) yoki kompleks hosil qilish qobiliyati yuqori ekanligi aniqlangan. Natijada shu moddalar reaktiv sifatida O'zbekiston Respublikasi (IIV EKBM) – ichki ishlar vazirligi ekspertiza kriminalistika bosh markazi portlash-texnik ekspertizalar bo'limining turli xildagi tekshirilayotgan tarkibida metal ionlari tutgan namunalar tarkibidagi metallarni aniqlash va ajratish uchun qulay reaktiv vazifasini bajarish imkonini bergan. Bu moddalar reagent sifatida amaliyotga tadbiiq qilingan va (O'zbekiston Respublikasi (IIV EKBM) – ichki ishlar vazirligi ekspertiza kriminalistika bosh markazi portlash-texnik ekspertizalar bolimining 2025-yil 24-apreldagi 21/a-691-son) ma'lumotnomasi olingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 13 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola respublikada, 3 ta maqola xorijiy jurnallarda (jumladan, ulardan 1 tasi Scopus bazasida indeksatsiya qilingan jurnalda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil qiladi².

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati haqida ma'lumot berilgan, maqsad va vazifalari keltirib o'tilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga tatbiq qilinishi ochib berilgan, shuningdek, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Aromatik birikmalarni xloratsetillash reaksiyalari**" deb nomlangan **birinchi bobida** mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlarda aromatik birikmalarni turli xil sharoitlardagi xloratsetillash reaksiyalari, reaksiyalardan olingan mahsulotlarning tuzilishi va amaliy ahamiyati hamda turli O-, C-, N-, S-xloratsetil birikmalarning sintezi, reaksiyalarning sharoitlari,


² Muallif O'zR FA O'MKI Alkaloidlar kimyosi laboratoriya mudiri, k.f.d. Sh.N.Jo'raqulovga va O'zMU Kimyo fakulteti k.f.n., prof.v.b. X.S.Tojimuhamedovga dissertatsiya ishini bajarishda ko'rsatgan yordamlari uchun o'zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

erituvchi va qo'llanilgan asosning tabiati reaksiyalar yo'nalishlariga ta'siri kabi ma'lumotlar tahlili keltirilgan. Ma'lumotlar umumlashtirilib ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan va ular asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.


Dissertatsiyaning **“Toluidinni xloratsetillash va olingan N-xloratsetil birikmalarning nukleofil almashinish reaksiyalari (olingan natijalar va ularning muhokamasi)”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** olingan tadqiqot natijalari keltirilgan va toluidinlarni xloratsetilxlorid – (XAX) bilan N-xloratsetillab olingan 2-xlor-N-tolilatsetamidlar hamda ular asosida N-tolilatsetamidlarning alkaloidli hosilalar sintezi tahlil qilingan.

Toluidinlarni xloratsetilxlorid bilan N-xloratsetillash reaksiyalari.

Aromatik aminlar alifatik to'yingan aminlarga nisbatan kuchsiz asosdir. Chunki aromatik aminlarda benzol yadrosining manfiy induksion (-J) va manfiy mezomer (-M) ta'siri hisobiga, aminoguruh azot atomining elektron zichligini keskin kamaytirib yuboradi va natijada mos ravishda asoslik ham kamayadi. Aromatik aminlarni benzol yadrosida o'rinbosarlarning bo'lishi asoslik xossasiga ta'sir qiladi. Aromatik aminlarning asoslik xossasini elektronoakseptor o'rinbosarlar kamaytiradi, elektrondonor o'rinbosarlar esa oshiradi, bundan tashqari o'rinbosarlarning joylashgan holatiga qarab ba'zi fizik xossalari, molekulaning fazoviy ta'siri turlicha bo'ladi. Toluidinlarning orto-, para-izomerlarida elektron siljishi konyugirlangan qo'shbo'g'lar orqali to'g'ri N-C bog'iga boradi va azotda elektron zichlik ortadi natijada asosligi yuqori bo'lishi kerak, ammo orto-toluidinning pKa qiymati kichikligini fazoviy qiyinchilik yoki fazoviy to'siq vujudga kelishi bilan tushuntirish mumkin.




Toluidin izomerlarini xloratsetillash reaksiyalari turli sharoitlarda o'rganildi. Reaksiyaning borishiga asos ((TEA)-trietilamin, K_2CO_3), erituvchi ta'siri o'rganilgan. Reaksiya quyidagicha boradi:



Reaksiyaning mexanizmi quyidagicha taklif etildi: XAX molekulasida karbonil guruhi bilan bog'langan xlor atomining manfiy induksion (-J) va kislorod atomining manfiy mezomer (-M) ta'siri natijasida karbonil guruh uglerod atomining elektronga taqchilligi, musbat zaryad qiymati nihoyatda ortadi.

Natijada toluidin molekulasidagi elektron zichligi eng ko'p to'plangan aminoguruhning juft elektronlari nukleofil hujum qiladi. Toluidinni azot atomidagi bir juft elektronlari hisobiga azot-uglerod bog'i hosil bo'ladi, kislorod qo'sh bog'ining bittasi uzilib anion holga o'tadi va uglerod- xlor bog'idagi bir juft elektronlar xlor atomiga siljiydi hamda bu atom anion holatida ajralib chiqadi, kislorod bog'i tiklanadi va qo'sh bog' holatiga o'tadi.



Toluidin izomerlarini N-xloratsetillash reaksiyalari turli sharoitda o'rganildi. Dastlab reaksiyalar turli erituvchilarda, reagentlar bir xil mol nisbatida va -2°C dan past haroratda 5-6 soat davomida olib borildi. Reaksiya mahsulotlari ajratib tozalandi.

1-Jadval

2-Xlor-N-tolilatsetamidlar olish reaksiyalariga erituvchi va asosning ta'siri:
(Toluidin: XAX:asos 1:1:1 nisbat $-2-5^{\circ}\text{C}$ da 6 soat davomida)

Reagent	Mahsulot tartib raqami va $T_{\text{suyuq}}, ^{\circ}\text{C}$	Erituvchi	Mahsulot unumi, %		Rf
			TEA	K_2CO_3	
o-Toluidin	01 106	Atsetonitril	83	90	0,65
		Benzol	78	78	
m-Toluidin	02 183	Atsetonitril	85	93	0,62
		Benzol	79	82	
p-Toluidin	03 175	Atsetonitril	88	94	0,73
		Benzol	85	85	

Toluidin izomerlarining XAX bilan reaksiyalari sp^2 gibridlangan uglerod atomida nukleofil almashinish reaksiyasi bo'lib,

bunday reaksiyalar uchun, asosan, qutbli erituvchilardan foydalaniladi. Toluidin izomerlarining XAX bilan reaksiyalari uchun qutbli va qutbsiz erituvchilar tanlab olindi hamda qutbsiz erituvchida ham yaxshi unum bilan mahsulot olishga erishilgan. Bundan tashqari, xuddi shu tajribalar asosini ta'sirini o'rganish maqsadida TEA va K_2CO_3 ishtirokida olib borildi. Toluidin izomerlarining XAX bilan reaksiyalarida ajralib chiqadigan HCl ni tortib oluvchi TEA ga nisbatan K_2CO_3 ishtirokidagi reaksiyalarda qisman unumning ortganligini ko'rishimiz mumkin. QYuKA nazariyasiga ko'ra, K_2CO_3 TEA ga nisbatan asoslilik yuqoriroq ekanligi bilan izohlash mumkin.

Toluidinlarni xloratsetillash reaksiyalariga ultratovush ta'siri


Tadqiqotlarni davom ettirilgan holda reaksiya davomiyligini kamaytirish va reaksiya unumini oshirish maqsadida reaksiyalar yuqoridagi sharoitda ultratovush ta'sirida, xona haroratida olib borildi. Reaksiya davomiyligini har 15 daqiqada

YuQX usulida tekshirildi. Reaksiyalar uchun bir nechta erituvchi tanlab olindi. Reaksiya davomiyligi 1 soatni tashkil etdi. Ultra tovush sharoitida, atsetonitril erituvchisida K_2CO_3 ishtirokida olib borilgan reaksiyalar yuqori unumlar bilan mahsulot olinganligi sababli maqbul sharoit deb tanlandi.

2-jadval

Toluidinni XAX bilan reaksiyalarida reaksiya unumiga ultra tovush, erituvchi ta'siri (XAX: toluidin: K_2CO_3 1:1:1 nisbatda, reaksiya davomiyligi 1 soat, harorat-2-5^oC da)

№	Erituvchilar	2-Xlor- <i>o</i> -tolilatsetamid 01	2-Xlor- <i>m</i> -tolilatsetamid 02	2-Xlor- <i>p</i> -tolilatsetamid 03
1	Atsetonitril	88	90	91
2	Atseton	86	90	91
3	Dioksan	87	89	90
4	Benzol	86	85	87



1-rasm. 2-Xlor-N-*p*-tolilatsetamidning kristal tuzilishi.

Toluidin izomerlarini xloratsetillash reaksiyalarida erituvchining qutbliligi ortishi bilan reaksiya unumining ortishi kuzatildi. Atsetonitril erituvchisida eng yuqori unum bilan mahsulot olishga erishildi. Bundan tashqari reaksiyada ajralib chiqqan HCl ni tortib oluvchi asos K_2CO_3 dan foydalanildi, chunki adabiyotlarda keltirilishicha ultratovushli sharoitda reaksiya unumi reaksiyon aralashmadagi zarrachalar turiga va o'lchamiga bog'liq.

Sintez qilingan birikmalarning individualligi YuQX usuli yordamida aniqlangan. YuQX uchun geksan: etilatsetat: metanol (5:1:0.25) sistemasi tanlandi va R_f qiymatlari aniqlangan. 2-Xlor-N-tolilatsetamidlarning tuzilishi IQ, YaMR va RTT usullari bilan tasdiqlangan.


Sintez qilingan 2-xlor-N-*o*-tolilatsetamid (**01**) molekulasida amid bog'i (CO-NH) mavjud bo'lib IQ-spektri (KBr, ν , cm^{-1}) 3264 cm^{-1} sohada N-H bog'ining valent tebranishi kuzatiladi, 1660 cm^{-1} sohada C=O bog'ining valent tebranishi, 746-713 cm^{-1} sohada monoxloralmashgan alkilgalogenid CH_2-Cl bog'ining valent tebranishi, 1556 cm^{-1} sohada aromatik halqadagi C-N ikkilamchi amid bog'ining deformatsion tebranishlari, 746 cm^{-1} sohada 1,2-almashgan aromatik halqani deformatsion tebranishlari kuzatildi. Sintez qilingan 2-xlor-N-*o*-tolilatsetamidni ¹H YaMR spektrlarida CH_3 protonlari 2.32 m.u. sohada singlet, CH_2-Cl ga tegishli protonlar 4.16 m.u. sohada singlet, Ar-halqaga tegishli protonlar 6.96 m.u. sohada dublet, 7.2 m.u. sohada triplet, 7.39 m.u. sohada dublet, 7.1 m.u. sohada singlet signallari kuzatildi, ¹³C YaMR spektrlarida esa CH_3 guruhdagi C- 17.87 m.u. sohada, CH_2-Cl ga tegishli C-43.59 m.u. sohada, Ar-halqaga tegishli C- 126.75, 127.42, 127.82, 131.67, 134.31, 136.26 m.u. sohada, C=O ga tegishli C-168,1 m.u. eng kuchsiz sohada signallari kuzatildi.

2-Xlor-N-tolilatsetamidlarni alkaloidlar bilan nukleofil almashinish reaksiyalari

2-Xlor-N-tolilatsetamid izomerlarining xossalari o'rganish maqsadida bir nechta omillar inobatga olindi; birinchidan, sintez jarayonining soddaligi, ikkinchidan, tanlab olingan alkaloidlarning noyob xususiyatga ega ekanligi, ya'ni biologik faol birikmalar va uchunchidan, tanlangan alkaloidlarning tabiiy o'simliklardan olinishidir. Ushbu birikmalarning biologik faolligini bashorat qilish uchun PASS (Predicton of Activity Spectra for Substances) kompyuter tizimi ma'lumotlaridan foydalanildi va maqsadli sintez amalga oshirildi. Tadqiqotni keyingi bosqichini olib borish uchun N-nukleofil va O-nukleofil reaksiyon markaziga ega bo'lgan bir nechta alkaloidlar tanlab olindi.


2-Xlor-N-tolilatsetamidlarni F7, psevdofedrin, sitizin, anabazin, 8-oksixinolin, solsalin alkaloidlari bilan erituvchini qaynash haroratida N-nukleofil almashinish reaksiyalari

F7 alkaloidi antiaritmik va lokal anestezik faollikni ko'rsatadigan vosita bo'lib, 2-xlor-N-tolilatsetamid izomerlari bilan nukleofil almashinish reaksiyalar olib borildi hamda reaksiyaning borishiga erituvchi va vaqtning ta'siri o'rganildi.




Reaksiya sp^3 gibridlangan uglerod atomida nukleofil almashinish reaksiyasi S_N2 mexanizmi bo'yicha boradi. 2-Xlor-N-tolilatsetamid molekulasidagi $\text{CH}_2\text{-Cl}$ bog'ida xlorning manfiy induksion (-I) va CH_2 ga bog'langan karbonil guruhdagi kislorodning manfiy mezomer (-M), karbonil guruhning manfiy induksion (-J) ta'siri natijasida CH_2 da qisman musbat zaryad, ya'ni elektronga taqchillik paydo bo'ladi, natijada F7-1-(3,4-dimetoksifenil)-6,7-dimoksi-1,2,3,4-tetragidroxinolin molekulasidagi NH ning juft elektronlari hisobiga nukleofil hujumiga uchraydi, bir vaqtning o'zida Cl^- anioni ajraladi va azot juft elektronlarini tiklaydi. HCl trietilamin bilan to'rtlamchiammoniy xlorid tuzini hosil qiladi hamda **1, 2, 3** mahsulot hosil bo'ladi.

Reaksiya mexanizmi quyidagicha taklif etildi.



Keyingi N-nukleofil tabiatiga ega bo'lgan psevdofedrin alkaloidi bilan reaksiyalari o'rganildi. Psevdofedrin adrenomimetik, bronx kengaytiruvchi, yallig'lanishga qarshi xususiyatga ega bo'lib, uning asosida ko'plab dorivor moddalar sintez qilib olingan. Avvalgi tadqiqotlarga tayangan holda 2-xlor-N-tolilasetamid molekulasiga N-nukleofillik qobiliyatiga ega alkaloidlarni modifikatsiyalash, biologik faol yangi moddalar sintez qilish maqsadida psevdofedrin alkaloidi bilan reaksiyalar olib borildi. Psevdofedrin molekulasida ikkita reaksiyon markaz N-H va O-H bo'lib, zaryadlar zichligini taqsimlanishini Hyper Chem dasturida hisoblandi va N-H da -0,454, O-H qiymatlar esa -0,338 ga teng ekanligi, bu zaryadlar zichligini taqsimlanish qiymati NH guruhda yuqori bo'lganligi, NH dagi azotning nukleofiligi OH ga nisbatan yuqoriligi hisobiga bu reaksiyalar ham yuqoridagi reaksiyalar kabi S_N2 turdagi nukleofil almashinish reaksiyalari mexanizmida boradi.



Reaksiya psevdofedrin molekulasidagi azotning juft elektronlari hisobiga nukleofil 2-xlor-N-tolilasetamid molekulasidagi karbonil guruhga bog'langan CH₂ ga hujumi bilan boshlanadi, reaksiya o'tish holati bilan Cl ni ajralishi azot juft elektronlari hisobiga bog'ni tiklaydi va bunda HCl ni tutuvchi asos sifatida trietilamindan foydalanildi.

Ma'lumki, sp³ gibridlangan uglerod atomida nukleofil almashinish reaksiyasiga S_N2 mexanizmi qutbli erituvchilarda yaxshi boradi. Shu ma'lumotlarga asosan qutbli erituvchilardan atseton, 1,4-dioksan, etilatsetat va DMFA tanlab olindi. Reaksiyalar erituvchini qaynash haroratida, magnitli aralashtirgichda olib borildi va reaksiya davomiyligini har-bir soatda YuQX da aniqlandi. YuQX da tekshirilganda 1 ta yangi dog'va yana boshqa 1 ta yangi dog' izlari borligi kuzatildi, 2-dog' izlari ikkinchi reaksiyon markaz O-alkil mahsulot bo'lib, R_f qiymati 0, 45; 0,49; 0,54 ga teng, lekin tozalash davomida suvga yuvilib ketdi. O-alkil mahsulot juda kam bo'lganligi sababli ajratib olishga erishilmadi. Reaksiya natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Sintez qilingan moddalarning fizik-kimyoviy konstantalari aniqlandi. Jadvaldagi natijalarga ko'ra, tanlab olingan atseton, 1,4-dioksan, etilatsetat va DMFA erituvchilari orasidan etilatsetatda reaksiya unumi pastroq bo'lishi va 2-xlor-N-*o*-tolilatsetamid < 2-xlor-N-*m*-tolilatsetamid < 2-xlor-N-*p*-tolilatsetamid qatorida reaksiya unumi ortishi kuzatildi.

Buning sababini erituvchilarning qutbliligi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, F7 va psevdofedrin alkaloidlarini reaksiyon qobiliyatini solishtiradigan bo'lsak, psevdofedrinda 2 ta reaksiyon markazning borligi, qisman O-

mahsulotning hosil bo'lishi hisobiga N-mahsulotni unumi biroz F7 ga nisbatan past ekanligini izohlash mumkim.


3-Jadval

2-Xlor-N-tolilatsetamidlarni F7 va psevdofedrin alkaloidlari reagentlar 1:1:1 nisbatda TEA asos ishtirokida reaksiya mahsulot unumiga erituvchini ta'siri (Reaksiya davomiyligi 5-6 soat)

№/t.r	Substratlar	Reagentlar	Mahsulot unumi, %.				R _f	T _s , °C
			Etilatsetat 78°C	1,4-Dioksan 101°C	Atseton 56°C	DMF 154°C		
1	2-Xlor-N- <i>o</i> -tolilatsetamid	F7	66	67	75	80	0,76	67
2	2-Xlor-N- <i>m</i> -tolilatsetamid		69	71	75	81	0,62	134-137
3	2-Xlor-N- <i>p</i> -tolilatsetamid		72	77	80	84	0,74	120,1
4	2-Xlor-N- <i>o</i> -tolilatsetamid	Psevdofedrin	64	68	72	80	0,61	100.4-102,1
5	2-Xlor-N- <i>m</i> -tolilatsetamid		62	62	70	80	0,71	155,9-157,6
6	2-Xlor-N- <i>p</i> -tolilatsetamid		67	71	76	82	0,8	134,2-134.7

2-Xlor-N-tolilatsetamidlarni sitizin, anabazin va 8-oksixinolin alkaloidlari bilan erituvchini qaynash haroratida nukleofil almashinish reaksiyalari


Tadqiqotlar davomini N-nukleofil tabiatiga ega bo'lgan alkaloidlardan sitizin, anabazin va 8-oksixinolin alkaloidlari tanlab olindi. Sitizin-nikotin (tamaki)ga bo'lgan farmakologik qaramlikning bosqichma-bosqich kamayishiga va oxir-oqibatda butunlay yo'qolishiga olib keladi. Shu xususiyatlarini inobatga olgan holda 2-xlor-N-tolilatsetamidlarni sitizin alkaloidi bilan reaksiyalari olib borildi.



Reaksiya yuqoridagi singari S_N2 bimolekulyar nukleofil almashinish mexanizmidagi boradi. Sitizin molekulasidagi N-H nukleofil almashinish reaksiyalariga oson kirishadi. Reaksiyaning borishiga harorat, erituvchi ta'siri o'rganildi.


Zamonaviy organik sintezda N-nukleofillarning reaktivligi keng o'rganilmoqda, chunki ular ko'plab bioaktiv birikmalarni olishda asosiy oraliq komponentlar sifatida xizmat qiladi. Sintez qilingan 2-xlor-N-tolilatsetamidlar bilan tadqiqotlarni davom ettirish maqsadida molekulasining N-nukleofilikka ega bo'lgan alkaloidlar orasidan anabazin alkaloidi tanlab olindi. Anabazinning asosiy

texnologik qo'llanish sohasi – insektitsid (hasharotlarga qarshi vosita) sifatida foydalaniladi. Ushbu ilmiy asoslarga tayangan holda tajribaviy tadqiqotlar olib borilib, reaksiyaga erituvchilarning ta'siri sistematik tarzda o'rganildi.



Reaksiya yuqoridagi singari S_N2 bimolekulyar nukleofil almashinish mexanizmidagi boradi.

Tadqiqotning davomi O-nukleofil markaziga ega bo'lgan 8-gidroksixinolin alkaloidi tanlab olindi va N-nukleofil almashinish reaksiya unumlarini taqqoslash maqsadida tadqiqotlar olib borildi. Bu alkaloidni tanlashimizning yana bir muhim jihati 8-oksixinolin kuchli antibakterial va zamburug'larga qarshi xossaga ega bo'lib, uni mikroblarga qarshi preparatlar tayyorlashda ishlatish mumkin. 2-Xlor-N-tolilatsetamid izomerlarining 8-oksixinolin alkaloidi bilan reaksiyalarining borishiga erituvchi, harorat hamda vaqtning ta'siri o'rganildi.



Reaksiya davomiyligi YuQX da tekshirildi. YuQX tekshirish davomida 8-oksixinolin molekulasidagi N-ga ham reaksiya ketishi, ya'ni O-mahsulotdan boshqa yangi dog' izlari kuzatildi, ammo tozalash davomida ajratib olishga erishilmadi. Jadval natijalaridan 2-xlor-N-p-tolilatsetamidlarining sitizin, anabazin alkaloidi bilan reaksiyalari ham yaxshi unumlarda olinganligini ko'rishimiz mumkin. Natijalar nazariy ma'lumotlarga mos sitizin va anabazin alkaloidlariga nisbatan 8-oksixinolin bilan mahsulot unumlarining biroz past bo'lishi 8-oksixinolin molekulasi aromatik N-asos xossasiga egaligi, reaksiyada tuz hosil bo'lishi hisobiga O-mahsulot unumining pasayishiga sabab bo'lgan. Tadqiqot natijalaridan ma'lumki, 8-oksixinolin molekulasidagi O-H guruhi O-nukleofil tabiatiga ega bo'lib nukleofil almashinish reaksiyalariga oson kirishadi.


Natijalar N-nukleofil almashinish reaksiya unumlarini taqqoslanganda, masalan, DMF erituvchisida, 2-xlor-N-p-tolilatsetamid bilan F7 alkaloidini 88 %, psevdofedrin alkaloidini 86 %, sitizin alkaloidini 87 %, anabazin alkaloidini mahsuloti 84 %ni tashkil qilib, 8-oksixinolin bilan esa unum 81 % birozgina past ekanligi N-nukleofilning O-nukleofilga nisbatan faolligi bilan izohlash mumkin.

2-Xlor-N-tolilatsetamlarni sitizin, anabazin, 8-oksixinolin alkaloidlari bilan reagentlar 1:1:1 nisbatda TEA asos ishtirokida reaksiya mahsulot unumiga erituvchi ta'siri

№/t.r	Substratlar	Reagentlar	Mahsulot unumi, %.			R _f	T _s , °C
			1,4-Dioksan 101 °C	Atseton 56 °C	DMFA 154 °C		
1/7	2-Xlor-N- <i>o</i> -tolilatsetamid	Sitizin	71	76	81	0,48	58-60
2/8	2-Xlor-N- <i>m</i> -tolilatsetamid		70	75	83	0,42	48,1-49,6
3/8	2-Xlor-N- <i>p</i> -tolilatsetamid		73	80	83	0,52	163,4
4/10	2-Xlor-N- <i>o</i> -tolilatsetamid	Anabazin	69	72	74	0,53	127,7-130,7
5/11	2-Xlor-N- <i>m</i> -tolilatsetamid		70	72	76	0,47	57,1-58,3
6/12	2-Xlor-N- <i>p</i> -tolilatsetamid		71	74	76	0,67	47,7-49,1
7/13	2-Xlor-N- <i>o</i> -tolilatsetamid	8-Oksixinolin	67	69	71	0,45	58-60
8/14	2-Xlor-N- <i>m</i> -tolilatsetamid		69	71	78	0,42	187
9/15	2-Xlor-N- <i>p</i> -tolilatsetamid		70	75	81	0,52	256

2-Xlor-N-tolilatsetamidlarning salsolin alkaloidi bilan nukleofil almashinish reaksiyalarida ultratovush va haroratning ta'siri

2-Xlor-N-tolilatsetamidni salsolin- alkaloidi bilan reaksiyalari olib borildi. Salsolin antigipertenziv faolligini bilan bog'liq, ya'ni salsolin nafas olishni rag'batlantirish va qon bosimini pasaytirish qobiliyatiga ega. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib maqsadli sintezlar olib borildi.



Salsolin molekulasida ikkita N-H va O-H reaksiya markazlari mavjud. Tadqiqotlar olib borishdan avval molekulada zaryad zichligini taqsimlanish qiymatini "Hyper Chem" dasturida aniqlovchi N-H bog'ining zaryad qiymati – 0,425 va O-H bog'ining zaryad qiymati – 0,235 hisoblandi hamda reaksiya, asosan, salsolin molekulasining N-nukleofil qismi bilan borishi nazariy jihatdan ko'rsatildi.

2-Xlor-N-tolilatsetamidlarni salsolin alkaloidi 1:1:1 mol nisbatda K₂CO₃ asos ishtirokida reaksiya mahsulot unumiga harorat, (80⁰C) erituvchi, vaqt va ultratovushlarning ta'siri

№	Reagentlar	Erituvchi	Reaksiya davomiyligi, soat.	Mahsulot unumi, %.	R _f	T _s , °C
1	2-Xlor-N- <i>o</i> -tolilatsetamid	Atseton	6	-	0,65	201,3
		1,4- Dioksan	5	-		
		DMFA	5	-		
		Xlorform: DMFA	3	74		
2	2-Xlor-N- <i>m</i> -tolilatsetamid	Atseton	6	-	0,46	218,6-218,8
		1,4- Dioksan	5	-		
		DMFA	5	-		
		Xlorform: DMFA	3	78		
3	2-Xlor-N- <i>p</i> -tolilatsetamid	Atseton	6	-	0,55	210,9-210,2
		1,4- Dioksan	6	-		
		DMFA	6	-		
		Xlorform: DMFA	3	81		

Sintez qilingan 2-xlor-N-tolilatsetamid izomerlarini salsolin alkaloidi bilan reaksiyalari biz tanlab olgan erituvchilarda yaxshi erimasligi aniqlandi. Reaksiyalar magnitli aralashtirgichda erituvchining qaynash haroratida olib borilganda yaxshi ketmaganligi sababli ultratovush (80⁰C) ta'sirida olib borildi. Reaksiya natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

Jadval natijalaridan ko'rinadiki, 2-xlor-N-tolilatsetamid izomerlarini salsolin alkaloidi bilan atseton, 1,4-dioksan, DMFA erituvchilaridagi reaksiyalarda mahsulot sintez qilishga erishilmadi. Reaksiyalar xloroform:DMFA 1:1 nisbatda erituvchilar aralashmasida olib borildi. YuQX tekshirish davomida salsolin molekulasidagi N-ga reaksiya ketishi bilan bir qatorda yangi dog' izlari kuzatildi, ammo tozalash davomida ajratib olishga erishilmadi.

Yuqorida keltirilgan 3-5-jadval natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, 2-xlor-N-tolilatsetamid izomerlarini F7, psevdofedrin, sitizin, anabazin, 8-oksixinolin va salsolin alkaloidlar bilan reaksiyalarida tanlab olingan erituvchilarning dielektrik o'tkazuvchanligi, ya'ni qutblanuvchanligi ortishi bilan unumning ortishi kuzatildi.

N-tolilatsetamidlarni F7, psevdofedrin, sitizin, anabazin, 8-oksixinolin, alkaloidlari bilan ultratovush ta'sirida nukleofil almashinish reaksiyalari

Tadqiqotlarni 2-xlor-N-tolilatsetamid izomerlarini F7, psevdofedrin, sitizin, anabazin va 8-oksixinolin alkaloidlar bilan reaksiyalarida maqbul sharoit topish maqsadida reaksiyalarni ultratovush ta'sirida 80⁰C haroratda reagentlarning 1:1:1 mol nisbatida atseton, 1,4-dioksan va DMFA erituvchilarda olib borildi. Reaksiya davomiyligi har 15 daqiqada YuQX qilib aniqlandi. Reaksiya natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra atseton, 1,4-dioksan va DMFA erituvchilarida ultratovush ta'sirida 80⁰C haroratda olib borilgan reaksiyalarda barcha alkaloidlar bilan mahsulot unumining nisbatan ortishi kuzatildi. Bunga sabab ultratovush reaksiya jarayonida molekulada atomlar orasidagi bog'ning tebranishlar sonini

